

## KIBER MAKONDAGI MAVKURAVIY TARKIBLARDA YOSHLARNI ASRASHDA DOLZARB MASALALAR

*Mo‘minov Shehroz*

*Toshkent Axborot Texnologiya Universiteti*

*Samarqand filiali talabasi*

*Ilmiy rahbari: X.U.Samatov*

*TATU Samarqand filiali*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mutaassiblik tushunchasi, uning mohiyati, mutaassiblik orqali kelib chiqqan harakatlar, ularning internet tarmog‘i orqali amalga oshirayotgan harakatlari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mutaassiblik, tashkilot, terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm, internet, globallashuv.

### KIRISH

Globallashuv sharoitida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining tarakkiyoti g‘oyaviy ta‘sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishi xamda ushbu soxadagi uslub va vositalarning takomillashuviga sabab bo‘lmoqda. Mafkuradan kurash vositasi sifatida foydalanish umumbashariy tus olmoqda.

Turli geosiyosiy kuch markazlari o‘zlarining geostrategik maqsadlari yo‘lida «nishon» sifatida tanlangan mamlakatni qaram qilib olish uchun avvalo mazkur xalqni qadriyatlarini, tarixi va ma‘naviyatidan judo qilishga qaratmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mutaassib tashkilotlarning media targ‘iboti mavzusini tadqiq etishga AQSH va Yevropa mamlakatlari, arab davlatlarining nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlari, yetakchi ekspertlar tomonidan katta e‘tibor qaratilmoqda. Yurtimizda Sh.A. Yovqochev, B.M. Bobojonov, K.A. Shermuxamedov, J.A. Karimov, A. Hasanov, O. Yusupov, Sh. Islamov kabi olim va bir qator tadqiqotchilar terrorchi tashkilotning Internet orqali yuritadigan targ‘iboti hamda uning yoshlar ongiga salbiy ta‘sirini o‘rganganlar.

### MUHOKAMA

Endilikda geosiyosiy nazorat o‘rnatish turli «rangli inqiloblar» shaklida, Internet tarmog‘i, xorijiy tele va radiokanallari va bosma nashriyotlarida yo‘naltirilgan «axborot urushi» olib borish, mamlakat ichida milliyseparatistik, diniy-ekstremistik yoki radikal siyosiy goyalar bilan ongi zaxarlangan «beshinchi kolonna»larning ko‘poruvchilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish, «demokratiya eksporta» yoki «gumanitar intervensiya» kabi jozibali shiorlar ostida, aslida esa suveren mamlakatlarning ichki ishlariga ochiqdan-ochiq aralashish kabi usullarda olib borilmoqda. Buning tasdig‘ini

2000-yillarda Serbiya, Gruzziya, Ukraina, Qirg'iziston, Iroq;, Afg'anistan, Pokistonda, 2010- yillarda Tunis, Misr, Liviya, Suriya kabi mamlakatlarda ro'y bergan va hozirgi kunda kuzatilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar misolida ko'rish mumkin.

Diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Shunday ekan, uning oldini olish va unga qarshi kurashish insoniyatning istiqboliga daxldor masalaga aylandi. Zero, ilmiy istilohda qo'llanayotgan «mutaassiblik», «fundamentalizm», «ekstremizm», «terrorizm», «fanatizm» kabi atamalar deyarli barchaga tushunarli bo'lsa-da, har kishi ularni o'zicha talqin etishi mumkin. Keng ma'noda bu atamalar qonuniy hokimiyatga qarshi kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir. Ammo muayyan mintaqa yoki din bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarda yuqoridagi atamalarning hammasi ham doimo qo'l kelavermaydi.

«Mutaassiblik» (arab. «g'uluv ketish», «chuqur ketish») muayyan g'oyalarning to'g'ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilish, «o'zgalar» va «o'zgaga» qarash hamda g'oyalarga murosasiz munosabatda bo'lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etishi, ularni tan olmasliqda namoyon bo'ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo'nalishlar orasida keskin nizo va to'qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o'zlari qilayotgan ishlarni to'g'ri deb hisoblab, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholaiki, ularni bu yo'lga boshlagan «rahnamolar»ning asl maqsadi mohiyatan g'ayriinsoniy xarakterga ega. Mutaassiblikning jirkanch basharasi dunyoning turli nuqtalarida sodir etilayotgan qo'poruvchilik va xunrezlik voqealarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham mutaassiblik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihati dinni siyosiylashtirish vositasida hokimiyatga intilish, dinni noto'g'ri talqin qilish bilan odamlar orasiga nifoq solish, qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g'arazli manfaatlarni ro'yobga chiqarishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi. Shu o'rinda qayd etish joizki, ko'p manbalarda ishlatilgan «aqidaparastlik» so'zi hozirgi voqelikdan kelib chiqib «mutaassiblik» so'zi bilan almashtirilgan holda iste'foda etilmoqda. Mutaassiblik ortidan diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorizm kabi bir qancha tushunchalar paydo bo'ldi. Dunyo hamjamiyatini bu kabi buzg'unchi g'oya vakillari bugungi kunga moslashib kibermakonda olib bormoqdalar. Masalan —Al-Qoida, —Ishid, —Musulmon birodarlar, —Tolibon, —Boqo xaram va shu kabi bir qancha tashkilotlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunday tashkilotlar internetdan quyidagi yo'llar bilan foydalanishadi:

- Yangi a'zolarni ilintirish – Ovoz, tasvir va matn mutaassiblar uchun ayni muddao. Ular bunday imkoniyatdan o'z —so'zlarilni keng jamoatchilikka baralla aytishda foydalanadi. Yangi a'zoni jalb qilishda veb sahifalarga ko'p kiradigan odamlarni kuzatib, o'rganib va oxir-oqibat ular bilan aloqaga kirishadilar.

- Targ'ibot maqsadida ma'lumot tarqatish – Bunda terrorchilar saflarini kengaytirish uchun o'zlariga xayrixohlarni tanlab, saflariga qo'shish hamda shu orqali jangarilarni ko'paytirishni maqsad qiladilar.

- Mahoratni oshirish – Terrorchilar global tarmoq orqali qo'lbola bombani yasash, o'zini o'zi oldirish orqali ko'pchilikka muttasil o'rgatib boradi.

- Mablag' jamg'arish – Bunda veb-sahifalar, chatlar va forumlarga ushbu tashkilotlarga aloqador bank hisob raqamlari joylashtiriladi va jihodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga targ'ib etadi.

- Psixologik kurash – Bunda terrorchilar internetdan aholi orasiga qo'rquv-vahima solish, ruhiy ta'sir o'tkazish va tartibsizlikka chaqirish maqsadida foydalanadi. Masalan, qo'poruvchi tashkilotlar muayyan mamlakat qarorlarini to'xtatishni talab etadi. - Terrorchilarni tayyorlash va ko'rsatmalar berish

– Terrorchilar o'z gumashtalarini doimiy ravishda internet orqali ma'lumotlar va manbalar bilan ta'minlab boradi. Masofadan turib, ularga turli xil ko'rsatma va topshiriqlar beradi. Veb tarmoq orqali ularning malaka va tajribalarini oshirish uchun —mahorat darslarini olib boradi.

- Qo'poruvchilikni rejalashtirish va boshqarish – Bunda terrorchilar o'zlarining joylardagi hamtovoqlari bilan internet orqali terrorchi harakatlarini rejalashtiradi va ularning vertual to'daboshisi masofadan turib ushbu harakatlarni boshqaradi. Yevropa olimlari èshlarda diniy qarashlarning shakllanishi ko'p jihatdan global tarmoq orqali bo'laètgani ta'kidlashmoqda. Britaniyalik musulmonlar ma'lumot olish uchun Young Muslims UK (—Jamoati islomiy harakati ta'siri ostida shakllangan veb-sahifa) èki Fatvo va tadqiqot bo'yicha Yevropa qo'mitasi (—Musulmon birodarlarl ekstremistik tashkiloti shofeligidagi veb-sahifa)ga murojaat qiladi.

Bugungi kunda ko'plab guruhlarining ijtimoiy tarmoqda faolligini ko'rishimiz mumkin. Masalan —Tolibon harakati o'z safiga yangi a'zolarni jalb etish, erishilgan —yutuqlarni ovoza qilish va zarur ma'lumotlarni e'lon qilish maqsadida 2011 yilning may oyidan boshlab dunè bo'ylab ommalashgan —Twitter ijtimoiy tarmog'idan foydalana boshlagan. Vaholanki, Tolibon harakati televizor, radio singari zamonaviy texnologiyalarni mutlaqo inkor etib, o'z a'zolarini bulardan ehtièt bo'lishga qattiq buyurar edi. Yana bir guruhlardan biri bu ISHID terrorchilik guruhidir. Ularning Internet faoliyati o'zigacha bo'lgan media targ'ibot yutuqlarini o'zlashtirgan va undan unumli foydalangan bo'lsa ham targ'ibotning uslubi, vositalari, maqsadi, ko'lami kabi jihatlari bilan —jihodiy jamoalarning ayni shunday faoliyatidan farq qiladi. Kristina Skori Liang (Christina Schori Liang) —Al-Qoida va —ISHID terrorchi

tashkilotlarining Internetdan foydalanishidagi farqlari xususida to'xtalib, —Al-Qoida, odatda, tarmoqqa ma'lumot yetkazish vositasi sifatida qarashi va —o'lja bilan qiluvchining sir saqlanishiga e'tibor qilsa, —ISHID jangarilari o'z-o'zini ovoza qilishi, bloglar, xabarchi dasturlar, video tarqatuvchi saytlar, —Twitter, —Facebook, —Instagram, —WhatsApp, —Tumblr, —Ask FM kabi platformalardan keng foydalanishini ta'kidlagan. —ISHIDning —Twitter va boshqa ijtimoiy tarmoq saytlaridan orttirgan shuhratini —Al-Qoida terrorchilik tashkiloti hatto tasavvur etolmagani tahliliy ma'lumotlar asosida ko'rishimiz mumkin. Terrorchi tashkilot media maydondagi faoliyatini urushning uchdan ikki qismi deb biladi. —ISHID o'z g'oyalari, amalga oshiraётgan faoliyati haqidagi ma'lumotlarni ommalashtirishga mo'ljallangan bir necha manbalarga ega bo'lib, ularni asosiy media markazlar va hududiy media bo'linmalarga ajratish mumkin. Markaziy media bo'linmalar qatoriga —Al- Furqon media, —Fursanul Balag' media, —Asavirti media, —Al-G'urabo media, —Al-Haèt media markazi, —I'tisam va —Ajnad muassasalari, —Baèn radiosi, —A'maq axborot agentligi kabi asosiy bo'linmalar kiradi. Markaziy media bo'linmalar terrorchi tashkilotga oid muhim ma'lumotlarni tayèrlash va tarqatishga mas'ul sanaladi. —ISHIDning media tarmoqlari markazida —Media devoni turadi va u terrorchi tashkilot mahsulotlarining tayèrlanishi hamda tarqatilishi ustidan nazorat olib boradi. —ISHIDning noqonuniy egallangan har bir hududiy birligi mustaqil faoliyat yuritadigan media bo'linmaga ega. 2016 yil mart oyi holatiga ko'ra, Iroqda —ISHIDga taalluqli 60 ta targ'ibot shoxobchasi faoliyat yuritgan bo'lsa, Muvsil shahrining o'zida bunday tuzilmadan 25 tasi aniqlangan.

### NATIJARLAR

Shu o'rinda internetning buzg'unchilar makoniga aylanishining asosiy sabablari qilib quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Internetning tartibga solinmagani – bu sarhadsiz olamda har xil mazmundagi turfa xil ma'lumotlar uchraydi;
2. Internetdagi faoliyatning maxfiyligi – o'rgimchak to'rida faoliyat olib boraётgan shaxslar anonim, ya'ni yashirin holatda faoliyat olib borishlari mumkin;
3. Matn, tasvir va ovoz uyg'unligidagi axborotni joylash kabi qulayliklar – ushbu axborot olamida dastlab ma'lumotlar matn ko'rinishida bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib internetda nafaqat matn, balki fotolavha, videolavha va ovoz uyg'unligidagi ma'lumotlarni joylashtirish va ularni elektron manzillarga jo'natish ham mumkin;
4. Internetga kirish osonligi – Hozirgi kunda internetdan foydalanish qulay bo'lib qoldi. Bunda nafaqat kompyuter, balki zamonaviy planshetlar va uyali aloqa vositalari, ya'ni telefonlar orqali ham kirib foydalanish imkoniyati mavjud;
5. Cheksiz auditoriya – Global tarmoqlarda turli fikr va qarashdagi milliardlab odamlar mavjud;

6. Ma'lumotlarni yetkazish tezkorligi – internet orqali bir axborotni yashin tezligida dunëning bir burchagidan narigi burchagiga yetkazish mumkin;

### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak terrorchi tashkilot noqonuniy egallangan hududning qisqarishi èki jangarilar sonining kamayishi sharoitida katta e'tiborni Internetdagi targ'ibotga qaratadi. Chunki yo'qotishlarga qaramay, terrorchi tashkilot onlayn targ'ibot sababli o'z ta'sirini saqlab qolishga intiladi. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekistonga qarshi diniy, ma'naviy va mafkuraviy tahdidlarning shakllari o'zgarmoqda. Shu bois, terrorchi guruhlar media targ'ibotini tahlil qilish, radikallashtirishni keltirib chiqaraëtgan sabablarni ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, uning natijalarini ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarda aks ettirish dolzarb sanaladi. Bunday vaziyatda, umuman, xalqaro terrorizm muammosiga nisbatan avvalgi qarashlarni qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi —Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risidagi PF-5416-son Farmoni, 2018 yil 23 iyundagi

—O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3080-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 iyundagi —O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi 466- son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 avgustdagi —Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish choratadbirlari to'g'risidagi PQ-4802-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi

### ADABIYOTLAR

1. Diniy mutaassiblik: mohiyat, maksadlar va oldini olish yo'llari / A. Hasanov, O. Yusupov, K. Shermuhamedov. U. G'afurov, J. Karimov; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Toshkent islom universiteti Islomshunoslik ilmiy- tadqiqot markazi. — 'Goshkent, «Movarounnahr» nashriëti, 2013. - 38 b.
2. Yaxè, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Toshkent.-2016 y. 40 b.
3. Yaxè, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Toshkent.-2016 y. 42 b.
4. Islamov Sh. Internet tarmog'ida mutaassib kuchlar tomonidan olib borilaëtgan g'oyaviy targ'ibotning o'ziga xos jihatlari // Imom Buxoriy saboqlari. – Samarqand, 2014.

5. Schenk Z. Examining Declassified Historical Media Documents. Communication Breakdown: Unraveling the Islamic State’s Media Efforts //Combating Terrorism Center, October 2016. p.5.
6. Islamov Sh. «ISHID» terrorchi tashkilotining diniy mazmundagi targ‘iboti // Imom Buxoriy saboqlari. 2020 y.
7. Islamov Sh. —ISHID terrorchi tashkilotining axborot xuruji va uni bartaraf etish yo‘llari// Aftoreferat. Toshkent. 2020 y
8. Gambhir H. The Virtual Caliphate: ISIS’s Information Warfare //Institute for the Study of War, December 2016. p.14